

KOREYS ADABIYOTIDA AYOL TIMSOLI TASVIRI

Buranova Gulnavoz Azamat qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Koreys filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolaning maqsadi koreys badiiy adabiyoti matnlarida paydo bo'lgan ayol obrazi xarakterini o'rganib chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: *adabiyot, ayol, obraz, monarxiya, Konfutsiy ta'limoti.*

Qadimda koreys jamiyatidagi ayollarning mavqei juda ziddiyatli bo'lgan. Bu davrda jamiyat hayotida ta'limning asosini konfutsiylik me'yorlari tashkil etgan bo'lib, ayollarga asosan tartibli qiz, itoatkor kelinlik burchlarini bajarish, konfutsiylik ta'limotida belgilangan barcha qoidalarga rioya qilgan holda sodiq xotin va g'amxo'r ona bo'lish vazifasi yuklatilgan. Bunga ko'zi ojiz otasini davolash uchun o'zini qurbon qilgan "Simcheon ertagi" 심청전 asarining bosh qahramoni yorqin misoldir. Adabiyot barcha davrlarda jamiyatning o'ziga xos ko'zgusi vazifasini bajarib kelgan. O'rta asrlarda koreys jamiyatida ayollar qadim zamonlardan beri Konfutsiylik tizimi me'yorlariga mutlaq bo'ysungan patriarxal tuzumning barcha qonun-qoidalariga bo'ysunib kelgan.

Birlashgan Silla davrida (668-935) esa ayollar oila boshlig'i rolini o'z zimmlariga olishlari mumkin bo'lgan. Bu davrga kelib ayollarga sezilarli iqtisodiy erkinlik va huquqlar berilgan. Bu paytda mamlakatni muvaffaqiyatli boshqargan uch malikaning nomi tarixga kirgan bo'lib, bundan tashqari, Koreya tarixining ko'plab epizodlarida yosh qirollar uchun kuchli va nufuzli regentlar ularning onalari bo'lgan va ular ba'zan saltanat boshqaruvida ham asosiy shaxs bo'lgan.

Goryeo davriga kelib (918-1392) ayollar meros olish, ikkinchi bor turmush qurish imkoniyati, harakat erkinligi va erkaklardagina mavjud bo'lgan boshqa ko'plab huquqlarga ega bo'lgan.

Li sulolasining kuchayishi (1392-1910) bilan koreyslarning qarashlari va hayoti neokonfutsiylik g'oyalari ta'sirida o'zgardi. Ta'limning asosi odamlarning oiladagi munosabatlarini va jamiyatdagi xatti-harakatlarini tartibga soluvchi konfutsiy me'yorlari bo'lgan.

Ayol faqat va faqat oila manfaatlarini ko'zlab yashashi va uning hayotini qiyinlashtiradigan hech narsa, masalan ta'lim olish va shu kabi ishlarni qilmasligi kerak bo'lgan. Ayollarga konfutsiylik ta'limotida belgilangan barcha qoidalarga rioya qilgan holda, hurmatli qiz, itoatkor kelin, sodiq xotin va g'amxo'r onalik burchlarini bajarish yuklangan.

Farzandlikka taqvodorlikning yorqin namunasi hisoblanuvchi “Simcheon haqidagi ertak” 심청전(19-asr) asarining bosh qahramoni, ko‘zi ojiz otasini davolatish uchun o‘zini qurbon qilgan. U o‘z uyiga olib kirishga va unga g‘amxo‘rlik qilishga tayyor bo‘lgan olijanob odamning homiyligini qabul qilmagan. Oxir-oqibat, qiz otasining ko‘rish qobiliyatini tiklashga va‘da bergan Buddist monastirining abbotiga pul to‘lash uchun o‘zini xitoylik savdogarlarga sotishga qaror qilgan. Axir uning uchun haqiqiy baxt bu oilasi, otasi uchun hurmatli qiz bo‘lishlik hisoblangan.

Ko‘rinib turibdiki, o‘rta asrlarda koreya adabiyotida ayol kishi itoatkor qiz, ayol, ona, rafiqqa timsolida gavdalangan.

Itoatkorlik va sadoqat o‘rta ars koreys adabiyotida ayollarning asosiy imiji sifatida tasvirlanib, ayollar erining irodasiga qarshi chiqishga jur‘at etmaganlar va har doim unga bo‘ysunishgan, buni odatiy hol sifatida qabul qilishgan. Oilada ayolning yetti pushti surishtirilgan. Ayolning erining ota-onasiga nisbatan hurmatsizlik qilishi, bepushtlik, xiyonat, rashk, og‘ir xastalik, ko‘p gapirish kabi odatlari uning ajralishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan.

“Qirolicha Inxyonning hayoti” 인현왕후전 hikoyasida bosh qahramon o‘zining mushkul ahvolini tasvirlagan quyidagi jumlada ham ayol kishining iztiroblarini ko‘rish mumkin: “Men tunu-kun go‘yo muz ustida yurayotgandekman”. Ayol barcha fazilatlariga qaramay, qiroлга merosxo‘r tug‘ib bera olmayotgani uchun o‘zini aybdor sanab, noloyiq xotin deb ataydi. Zero, ayolning asosiy maqsadlaridan biri farzand ko‘rish, nasl qoldirish bo‘lgan.

Shuningdek, achinarli jihatlardan yana biri farzandlar orasida o‘g‘il farzandning yo‘qligi bo‘lib, bu oila erkagiga bo‘lgan uch hurmatsizlikning biri hisoblangan. Bu holatda ham ayol kishi aybdor hisoblangan.

Pak Tusening “Yorovondagi tungi suhbat” (박두세 요로원야화기)

(1678) qissasida ayolning iztiroblari quyidagicha ifodalanadi: “Yoshim o‘ttizga yaqinlashmoqda, biroq, hali turmushga chiqmaganman. Bu dunyoda eng yomoni zurriyotsiz qolishdir. Xo‘sh, qanday qilib xafa bo‘lmayin?” Bu so‘zlardan ayollar uchun usha davrda farzand ko‘ra olmaslik naqadar ayanchli holat hisoblanganini anglash mumkin. Bolalarning yo‘qligi ajralishga olib kelishi va ayol abadiy yolg‘iz qolishi mumkin bo‘lgan, Erkak esa aksincha, qayta turmush qurishi yoki uyga kanizak olib kelishi mumkin bo‘lgan.

O‘rta asr adabiyotida keltirilishicha, bu davrda ayollar qayta turmush qurish huquqiga ega bo‘lmagan. Ular barcha huquqlardan mahrum bo‘lgan holda erlariga sodiq qolishlari, erining ota-onasiga xizmat qilishlari va boshqa turmushga chiqmasliklari kerak bo‘lgan. Bu davr adabiyotining asosiy vazifasi bu hayotning ma‘nosini eriga g‘amxo‘rlik qilish va uning talablarini bajarish deb biladigan itoatkor va sadoqatli xotin obrazini yaratishni talab qilgan.

Masalan, mashhur “Yaxshi ishlar va olijanob qalblar haqida eslatmalar” (17-asr) romanida yozuvchi qiz turmushga chiqqach, albatta eriga ergashishi kerakligini aytadi. “To‘qqiz bulutli tus” romanida, turmush qurishni orzu qilgan yosh qizning yagona vazifasi erkakka, eriga ergashish va uning barcha qiyinchiliklari va quvonchlari eri bilan bog‘liq ekanligiga alohida urg‘u beriladi.

Ayol faqat uy vazifalari bilan “ichkarida band bo‘lishi kerak” deb ishonilgan, jamoat hayotida ishtiroki mutlaqo shart bo‘lmagan. Ular xatto uzoq vaqt davomida xitoycha belgilar (hancha)ni o‘rganish huquqiga ham ega bo‘lmaganlar. Konfutsiylik ta‘limotiga ko‘ra ayol kishi kamtar va itoatkor bo‘lishi, lekin shu bilan bir qatorda kuchli va mas‘uliyatli, bo‘lishi talab etilgan.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Koreyada nafaqat jiddiy iqtisodiy o‘zgarishlar, balki ijtimoiy sohada ham keskin o‘zgarishlar yuz bergan. Hukumatning gender siyosatidagi o‘zgarishlari sabab patriarxal oila tizimidan ayol huquqlari himoya qilingan tizimga o‘ta boshlandi. Birinchi navbatda, oilalardagi bolalar soni qisqara boshladi. 1960-yillarda har bir oila o‘rtacha 6 nafardan farzand ko‘rgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1990-yillarda 1,6 tagacha qisqargan. 1965-yildagi ma‘lumotlarga ko‘ra oila

a'zolarining umumiy soni 5,5 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1988-yilda bu ko'rsatkich 3,86 kishini tashkil etgan.

18-19-asrlar koreys adabiyoti tarixida an'anaviy adabiyotdan zamonaviy adabiyotga o'tish uchun shart-sharoit shakllangan davr sifatida alohida o'rin tutadi. Aynan shu davrda adabiyotda mutlaqo yangi tendentsiyalarning xabarchisi bo'lgan janr o'zgarishlari jarayoni kuzatildi.

Bu jarayon, xususan, janrning metrik me'yorlaridan chetga chiqish, yangi usullardan foydalanish, shuningdek, adabiy an'anaga xos bo'lmagan tasvirlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu o'zgarishlarning muhim tarkibiy qismi ayol tasvirlari bo'lib, o'rnatilgan an'analardan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Koreys adabiyotidan tanlangan asarlar. –Seoul, Think book, 2015.
2. Аманова Г. А. Корейская поэзия 20-х-40-х гг. XX в. – М. , 2007.
3. Галкина Л. В. Корейская поэзия 20 – х. годов XX века. ДВГУ, – Владивосток, 1988.